Soliq qarzdorligining kelib chiqish sabablaridan biri soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini yetarlicha bilmasligidir. Masalan, Shvetsiyada soliq majburiyatlarini bajarish madaniyati yuqori darajada shakllangan. U yerda soliq to'lovchilar "Biz nega soliqlarni to'lamosligimiz kerak?" degan savolni emas, balki "Biz nega soliqlarni to'laymiz?" degan savolni berishadi. Shvedlar soliqlarni majburiyat sifatida emas, balki jamiyat farovonligini ta'minlovchi zarur vosita sifatida qabul qiladilar. Soliq tushumlari yo'llarni ta'mirlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimlarini rivojlantirishga sarflanishi ularning ongida aniq tushunchaga ega. Shu bilan birga, Shvetsiyada kompaniyalar moliyaviy hujjatlarining ochiqligi ta'minlangan bo'lib, har bir fuqaroga [www.allabolag.se](http://www.allabolag.se) saytida soliq to'lovchining daromadi va to'lagan soliqlari haqida ma'lumot olish imkoniyati yaratilgan (<https://ru.sweden.se/ljudi/nalogi-v-shvesii-lyubov-s-obyazatelstvami/>).



Bu holatni ikki xil talqin qilish mumkin: birinchisi — soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini bilmasligi, ikkinchisi — bilgan holda ularni bajarmasligidir.

Toshkent shahridagi soliq to'lovchi subyektlarning tarmoq faoliyati bo'yicha 2024-yil tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, jami 5412 ta sanoat subyekti mavjud bo'lib, ularning umumiy ulushi 12,6% ni tashkil qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha 2% dan ortiq to'lovga chiqqan subyektlar soni 2595 tani tashkil etgan, bu esa 15,2% ulushga teng. Tovar (ish, xizmat) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50% dan kam bo'lgan subyektlar soni 4273 tani, ya'ni 13,8% ulushni tashkil qiladi. 2024-yil yakuniga ko'ra, QQS to'lamagan subyektlar soni atigi 3 tani tashkil etgan bo'lib, bu jami subyektlar soniga nisbatan 6,1% ni tashkil etadi.

Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlari orasida soliq qarzlari qisqartirish imkoniyatiga ega korxonalar soni 4980 tani tashkil etib, ularning ulushi 13,2% ga teng. Imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 797 ta (12,4%) bo'lib, ular uchun ajratilgan mablag' qiymati 154 796 333 661 so'mni tashkil etgan, bu jami mablag'larning 12,2% ini tashkil qiladi. Soliq qarzi mavjud sanoat subyektlari soni esa 1617 ta bo'lib, jami subyektlar soniga nisbatan 14,3% ulushni egallaydi. Qarzdorlik miqdori 102 008 169 806 so'mni tashkil etib, umumiy qarzdorlik summasining 8,4% ini sanoat subyektlari band qilgan.

AYoQSh va metan sohasida soliq to'lovchilar soni sanoat tarmog'iga nisbatan ancha past bo'lib, 274 tani tashkil etadi, bu esa jami soliq to'lovchilarning 0,6% ulushiga teng (1-jadval).

1-jadval. Toshkent shahridagi soliq to'lovchi subyektlarning tarmoq faoliyati bo'yicha qo'shilgan qiymat soliq mezonlari tahlili

№	Soha	Soliq to'lovchi soni	I. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mezonlar			
			Yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqqan QQS summasi 2 foizdan ko'p bo'lgan subyektlar soni	Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni	Yil davomida QQS to'lamagan subyektlar soni	Soliq qarzini qisqartirish imkoniyati mavjud subyektlar soni
<b>Jami</b>		<b>42 822</b>	<b>16 976</b>	<b>30 858</b>	<b>49</b>	<b>37 495</b>
1	Sanoat	5 412	2 595	4 273	3	4 980
2	AYOQSH va metan	274	122	259	-	266
3	Dori-darmon savdosi	1 110	319	986	1	1 055
4	Ulgurji savdo	11 642	4 000	8 621	14	10 450
5	Chakana savdo	3 711	1 249	2 899	2	3 281
6	Qurilish	3 197	1 138	1 822	5	2 811
7	Transport xizmati	1 276	502	884	1	1 147
8	Ta'lim va sog'liqni saqlash	1 281	445	1 065	1	1 005
9	Moliya va IT xizmatlar	1 179	180	995	5	868
10	Boshqa xizmat ko'rsatish	9 912	5 241	6 998	12	8 442
11	Umumiy ovqatlanish	1 137	739	1 007	1	988
12	Qishloq xo'jaligi	157	43	94	-	140
13	Boshqa	1 375	312	793	2	1 108
14	Budjet tashkilotlari va NNTlar	1 159	91	162	2	954

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 122 taga yetgan bo'lib, bu jami ulushning 0,7% ini tashkil etadi. Birinchi klassifikator bo'yicha



tahlilni davom ettiradigan bo'lsak, tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni joriy yilda 259 tani tashkil etgan (yuqoridagi jadvalga ko'ra). Shu yil davomida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar aniqlanmagan. Biroq soliq qarzini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar soni 266 taga teng bo'lib, jami soliq to'lovchilar soniga nisbatan 0,7% ni tashkil etadi.

Ikkinchi klassifikator bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilgan subyektlar soni 27 ta bo'lib, 2024-yil holatiga ko'ra ularning umumiy pul mablag'i 4 192 787 189 so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich son jihatidan 0,4%, pul qiymati bo'yicha esa 0,3% ni tashkil etadi. So'nggi klassifikatorga ko'ra, qarzdorligi mavjud subyektlar soni 84 ta bo'lib, 0,7% ulushga ega. Qarzdorlikning pul ifodasi 2 708 706 984 so'mni tashkil etadi. AYOQSh va metan sohalarida soliq to'lovchilar soni sanoat tarmog'iga nisbatan ancha past bo'lib, jami qarzdor subyektlar ulushiga nisbatan 0,22% ni tashkil etadi.

Dori-darmon savdosi sohasida soliq to'lovchilar soni 1 110 ta bo'lib, bu jami ulushning 2,5% ini tashkil etadi. Mazkur sohada yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 319 taga teng bo'lib, ularning ulushi 1,8% ni tashkil qiladi. Tovlar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni esa 986 ta bo'lib, 3,1% ulushni egallaydi. 2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 1 taga teng bo'lib, jami ulushga nisbatan 2% ni tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlari orasida soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lganlar soni 1 050 taga yetgan bo'lib, bu jami ulushning 2,8% ini tashkil etadi.

Keyingi klassifikator bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilgan subyektlar soni 92 ta, ulushdagi foizi esa 1,4% ni tashkil qiladi. Ushbu turdagi subyektlarga ajratilgan mablag' miqdori 1 908 506 421 so'm bo'lib, bu jami pul hajmiga nisbatan 0,15% ni tashkil etadi. So'nggi klassifikatorga ko'ra, soliq qarzi mavjud subyektlar soni 284 ta bo'lib, jami ulushning 2,5% ini egallaydi. Qarzdorlik miqdori 3 781 855 661 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik summasiga nisbatan 0,31% ulush dori-darmon savdosi sohasi subyektlariga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo sohasi boshqa sohalariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Soliq to'lovchilar soni 11 642 ta bo'lib, bu jami ulushning 27,1% ini tashkil qiladi. Yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 4 000 ta bo'lib, ularning ulushi 23,5% ni tashkil etadi. Tovlar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni esa 8 621 ta bo'lib, 27,9% ulushga ega.

Joriy yil yakuniga ko'ra, ulgurji savdo sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 14 taga teng. Umuman olganda, sohalar bo'yicha 49 ta shunday subyekt mavjud bo'lib, ulgurji savdo sohasi ularning 28,5% ini tashkil etadi. Soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar soni 10 450 ta bo'lib, jami ulushning 27,8% ini tashkil etadi.

Keyingi klassifikator bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilgan subyektlar soni 779 ta (12,1%) bo'lib, ularga ajratilgan mablag' 43 238 510 076 so'mni tashkil etgan. Bu qiymat jami pul mablag'iga nisbatan 3,4% ni tashkil etadi. Mazkur sohada soliq qarzi mavjud subyektlar soni 2 738 ta bo'lib, ularning ulushi 24,2% ni tashkil etadi. Qarzdorlik miqdori 376 514 506 870 so'mni tashkil etib, jami qarzdorlik summasining 31% ini ulgurji savdo sohasi subyektlari egallagan.

Chakana savdo sohasida soliq to'lovchilar soni 3 711 ta bo'lib, jami ulushning 8,6% ini tashkil qiladi. Ushbu sohada yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 1 249 taga teng (7,3% ulush). Tovlar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni esa 2 899 ta bo'lib, bu 9,3% ulushga teng.

2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 2 ta bo'lib, jami ulushning 4% ini tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlari orasida soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lgan korxonalar soni 3 281 taga yetgan, ularning ulushi esa 8,7% ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval. Toshkent shahridagi soliq tulovchi subyektlarning tarmoq faoliyati bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan subyektlar tahlili

№	Soha	Soliq to'lovchi soni	II. Imtiyoz qo'llanilgan subyektlar	
			soni	summasi
<b>Jami</b>		<b>42 822</b>	<b>6 421</b>	<b>1 263 142 637 668</b>
1	Sanoat	5 412	797	154 796 333 661
2	AYOQSH va metan	274	27	4 192 787 189
3	Dori-darmon savdosi	1 110	92	1 908 506 421
4	Ulgurji savdo	11 642	779	43 238 510 076
5	Chakana savdo	3 711	206	49 858 194 337



6	Qurilish	3 197	197	71 581 080 711
7	Transport xizmati	1 276	264	15 384 778 876
8	Ta'lim va sog'liqni saqlash	1 281	725	132 584 665 579
9	Moliya va IT xizmatlar	1 179	854	180 205 267 795
10	Boshqa xizmat ko'rsatish	9 912	1 718	543 802 529 880
11	Umumiy ovqatlanish	1 137	63	1 890 207 968
12	Qishloq xo'jaligi	157	35	14 282 258 598
13	Boshqa	1 375	103	15 319 328 477
14	Budjet tashkilotlari va NNTlar	1 159	561	34 098 188 099

Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 206 ta bo'lib, ularning ulushi 3,2% ni tashkil etadi. Ushbu turdagi sanoat subyektlariga ajratilgan mablag' qiymati 49 858 194 337 so'mni tashkil etgan. Aniqlangan sonlarni foizga aylantirganda 3,9% natija hosil bo'ladi. Oxirgi klassifikator bo'yicha soliq qarzi mavjud subyektlar soni 864 ta bo'lib, jami soliq to'lovchilar soniga nisbatan 7,6% ulushni tashkil etadi. Qarzdorlik miqdori 60 592 589 410 so'm bo'lib, jami qarzdorlik summasining 4,9% ini chakana savdo sohasidagi subyektlar egallagan.

Navbatdagi qurilish sohasida soliq to'lovchilar soni 3 197 ta bo'lib, bu jami ulushning 7,4% ini tashkil qiladi. Ushbu sohaning QQS bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 1 138 tani tashkil etgan (6,7% ulush). Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni 1 822 ta bo'lib, bu 5,9% ulushni tashkil etadi. 2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 5 ta bo'lib, jami ulushning 10,2% ini tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlari orasida soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lganlar soni 2 811 taga yetgan bo'lib, ularning ulushi 7,4% ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 197 ta (3%) bo'lib, ularga ajratilgan mablag' miqdori 71 581 080 711 so'mni tashkil etadi. Bu qiymat umumiy hajmga nisbatan 5,6% ni tashkil qiladi. So'nggi klassifikator bo'yicha soliq qarzi mavjud subyektlar soni 1 328 ta bo'lib, jami ulushning 11,7% ini egallaydi. Qarzdorlik miqdori 259 350 484 654 so'mni tashkil etib, bu jami qarzdorlik summasining 21,4% ini qurilish sohasi subyektlari egallagan.

Tahlilning keyingi qismida transport xizmati sohasidagi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz. Ushbu sohada soliq to'lovchilar soni 1 276 ta bo'lib, jami ulushning 2,9% ini tashkil etadi. QQS bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 502 ta (2,9% ulush). Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni 884 ta bo'lib, bu 2,8% ulushni tashkil etadi. 2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni atigi 1 ta bo'lib, jami ulushga nisbatan 2% ni tashkil etadi. Soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar soni 1 147 taga yetgan bo'lib, ularning ulushi 3% ga teng.

Keyingi klassifikator bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 264 ta (4,1%) bo'lib, ularga ajratilgan mablag' 15 384 778 876 so'mni tashkil etgan. Bu qiymat umumiy mablag'ga nisbatan 1,2% ni tashkil qiladi. So'nggi klassifikator bo'yicha soliq qarzi mavjud subyektlar soni 344 ta (3%) bo'lib, qarzdorlik miqdori 17 348 493 169 so'mni tashkil etgan. Jami qarzdorlik summasining 1,4% ulushi transport xizmati sohasidagi subyektlarga to'g'ri keladi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida soliq to'lovchilar soni 1 281 ta bo'lib, jami ulushning 2,9% ini tashkil qiladi. Yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 445 ta bo'lib, ularning ulushi 2,6% ni tashkil etadi. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni 1 065 ta bo'lib, bu 3,4% ulushga teng. Joriy yilda ushbu sohada qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 1 ta bo'lib, ularning ulushi 2% ni tashkil etadi. Soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega subyektlar soni 1 005 ta bo'lib, ularning ulushi 2,6% ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 725 ta (11,2%) bo'lib, ularga ajratilgan mablag' miqdori 132 584 665 579 so'mni tashkil etgan. Bu qiymat umumiy mablag'ga nisbatan 10,4% ni tashkil qiladi. Mazkur sohada soliq qarzi mavjud subyektlar soni 285 ta bo'lib, ulushi 2,5% ni tashkil etadi. Qarzdorlik miqdori 9 794 906 847 so'mni tashkil etib, jami qarzdorlik summasining 0,8% ini ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi subyektlar egallagan.



Moliya va IT xizmatlari sohasida soliq to'lovchilar soni 1 179 ta bo'lib, jami ulushning 2,7% ini tashkil qiladi. Ushbu sohada yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqarilgan QQS summasi 2 foizdan ortiq bo'lgan subyektlar soni 180 ta (1% ulush) bo'lib, bu boshqa sohalarga nisbatan past ko'rsatkich hisoblanadi. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 foizdan kam bo'lgan subyektlar soni 995 ta (3,2%) ni tashkil etadi. 2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 5 ta bo'lib, ularning ulushi 10,2% ni tashkil etadi. Soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyatiga ega subyektlar soni 868 ta bo'lib, ularning ulushi 2,3% ni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval. Toshkent shahridagi soliq tulovchi subyektlarning tarmoq faoliyati bo'yicha soliq qarzi mavjud subektlar tahlili

№	Soha	Soliq to'lovchi soni	III. Soliq qarzi mavjud subektlar	
			soni	summasi
<b>Jami</b>		<b>42 822</b>	<b>11 288</b>	<b>1 211 914 974 400,78</b>
1	Sanoat	5 412	1 617	102 008 169 806
2	AYOQSH va metan	274	84	2 708 706 984
3	Dori-darmon savdosi	1 110	284	3 781 855 661
4	Ulgurji savdo	11 642	2 738	376 514 506 870
5	Chakana savdo	3 711	864	60 592 589 410
6	Qurilish	3 197	1 328	259 350 484 654
7	Transport xizmati	1 276	344	17 348 493 169
8	Ta'lim va sog'liqni saqlash	1 281	285	9 794 906 847
9	Moliya va IT xizmatlar	1 179	140	2 418 291 802
10	Boshqa xizmat ko'rsatish	9 912	2 733	165 614 649 230
11	Umumiy ovqatlanish	1 137	310	1 485 413 193
12	Qishloq xo'jaligi	157	75	5 137 843 208
13	Boshqa	1 375	389	199 369 553 560
14	Budjet tashkilotlari va NNTlar	1 159	97	5 789 510 008

M

anba: O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 854 ta bo'lib, ulushdagi foiz 13,3 ga teng. Bu turdagi sanoat subyektlari uchun ajratilgan mablag' qiymati 180 205 267 795 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu aniqlangan sonlarni foizga o'tkazganda 14,2 % hosil bo'ladi. Oxirgi klassifikator — soliq qarzlari mavjud subyektlar soni esa atigi 140 ta bo'lib, jamiga nisbatan 1,2 % ulushga ega chiqmoqda. Qarzdorlik miqdorining puldagi ifodasi 2 418 291 802 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik mablag'iga nisbatan 0,19 % foiz ulushni moliya va IT xizmatlari subyektlari band qilgan.

Boshqa xizmat ko'rsatish sohasida soliq to'lovchilar soni 9 912 ta bo'lib, bu ulgurji savdo sohasidan keyingi pog'onada turuvchi soha sifatida aniqlangan, jamiga nisbatan 23,1 % ni tashkil etadi. Bu sohaning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqqan QQS summasi 2 % dan ko'p bo'lgan subyektlar soni 5 241 tani tashkil qilgan, ya'ni ulushlardagi qiymati 30,8 %. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 % dan kam bo'lgan subyektlar soni esa 6 998 ta bo'lib, o'z navbatida 22,6 % ulush qiymatini o'zida saqlagan.

2024-yil yakuniga qadar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan subyektlar soni 12 taga teng bo'lib, jamiga nisbatan foiz ulushi 24,4 % ni tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlarining soliq qarzlarini qisqartirish imkoniyati mavjud bo'lgan subyektlar soni 8 442 taga yetgan, 2024-yil yakuniga kelib foizlardagi ulushi 22,5 % ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 1 718 ta, ulushdagi foiz 26,7 ga teng. Bu turdagi sanoat subyektlari uchun ajratilgan mablag' qiymati 543 802 529 880 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu aniqlangan sonlarni foizga aylantirganda 43 % hosil bo'ladi. Oxirgi klassifikator — soliq qarzlari mavjud subyektlar soni 2 733 ta bo'lib, jamiga nisbatan 24,2 % ulushga ega. Qarzdorlik miqdori 165 614 649 230 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik mablag'iga nisbatan 13,6 % ulush boshqa xizmat ko'rsatish soha subyektlariga to'g'ri keladi.



Umumiy ovqatlanish sohasida soliq to'lovchilar soni 1 137 ta bo'lib, jamiga nisbatan 2,6 % ni tashkil etadi. Bu sohaning QQS bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga qaraganda to'lovga chiqqan QQS summasi 2 % dan ko'p bo'lgan subyektlar soni 739 tani tashkil qilgan, ya'ni ulushdagi qiymati 4,3 %. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 % dan kam bo'lgan subyektlar soni esa 1 007 ta bo'lib, 3,2 % ulush qiymatini o'zida mujassam qilgan. 2024-yil yakuniga qadar QQS to'lamagan subyektlar soni atigi 1 taga teng, jamiga nisbatan foiz ulushi 2 % ni tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlarining soliq qarzlari qisqartirish imkoniyati mavjud subyektlar soni 988 taga yetgan bo'lib, 2024-yil yakuniga kelib ulushi 2,6 % ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 63 ta, ulushdagi foiz 0,91 % ga teng. Bu turdagi sanoat subyektlari uchun ajratilgan mablag' qiymati 1 890 207 968 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu aniqlangan pul qiymatini foizga o'tkazganda 0,14 % hosil bo'ladi. So'nggi klassifikator — soliq qarzlari mavjud subyektlar soni 310 ta bo'lib, jamiga nisbatan 2,7 % ulushga ega. Qarzdorlik miqdori 1 485 413 193 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik mablag'iga nisbatan 0,12 % ulush umumiy ovqatlanish soha subyektlari tomonidan band qilingan.

Qishloq xo'jaligi sohasida soliq to'lovchilar soni boshqa sohalarga nisbatan eng past ko'rsatkichga ega — 157 ta, bu 0,36 % ulushga teng. Yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqqan QQS summasi 2 % dan ko'p bo'lgan subyektlar soni 43 taga yetgan, bu esa 0,25 % ni tashkil etadi. Birinchi klassifikator bo'yicha tahlilni davom ettirsak, tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 % dan kam bo'lgan subyektlar soni joriy yilda 94 ta bo'lgani yuqoridagi jadvalda aniq ko'rsatilgan. Shu yil davomida QQS to'lamagan subyektlar aniqlanmagan.

Biroq soliq qarzini qisqartirish imkoniyati mavjud subyektlar soni 140 ta bo'lib, jamiga nisbatan 0,37 % ni tashkil etadi. Ikkinchi klassifikator bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilgan subyektlar soni 35 ta bo'lib, hisoblangan pul mablag'i 14 282 258 598 so'mni tashkil etadi (2024-yil hisobida). Foizdagi ulushlari son bo'yicha 0,54 %, pul qiymati bo'yicha esa 1,13 % ni tashkil etadi. So'nggi klassifikator — qarzdorligi mavjud subyektlar soni 75 ta bo'lib, 0,6 % ulushni egallaydi. Qarzdorlik bo'yicha aniqlangan pul qiymati 5 137 843 208 so'mni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi sohasi jami qarzdor subyektlar orasida 0,45 % ulushga ega.

Boshqa sohada soliq to'lovchilar soni 1 375 ta bo'lib, jamiga nisbatan 3,2 % ni tashkil etadi. Bu sohaning QQS bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqqan QQS summasi 2 % dan ko'p bo'lgan subyektlar soni 312 tani tashkil qilgan, ya'ni ulushdagi qiymati 1,8 %. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 % dan kam bo'lgan subyektlar soni esa 793 ta bo'lib, 2,5 % ulush qiymatini o'zida saqlagan. 2024-yil yakuniga qadar QQS to'lamagan subyektlar soni atigi 2 taga teng, jamiga nisbatan foiz ulushi 4,05 % ni tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlarining soliq qarzlari qisqartirish imkoniyati mavjud subyektlar soni 1 108 taga yetgan bo'lib, 2024-yil yakuniga kelib ulushi 2,9 % ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 103 ta, ulushdagi foiz 1,6 % ga teng. Bu turdagi sanoat subyektlari uchun ajratilgan mablag' qiymati 15 319 328 477 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu aniqlangan sonlarni foizga o'tkazganda 1,2 % hosil bo'ladi. So'nggi klassifikator — soliq qarzlari mavjud subyektlar soni 389 ta bo'lib, jamiga nisbatan 3,4 % ulushga ega. Qarzdorlik miqdori 199 369 553 560 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik mablag'iga nisbatan 16,4 % ulush boshqa soha subyektlari tomonidan band qilingan.

Tahlilni so'nggi soha — budget tashkilotlari va NNTlar bo'yicha yakunlasak, bu sohada soliq to'lovchilar soni 1 159 ta bo'lib, jamiga nisbatan 2,7 % ni tashkil etadi. Bu sohaning QQS bo'yicha mezonlar klassifikatorida yil boshidan tovar aylanmaga nisbatan to'lovga chiqqan QQS summasi 2 % dan ko'p bo'lgan subyektlar soni 91 tani tashkil qilgan, ya'ni ulushdagi qiymati 0,5 %. Tovar (ish, xizmatlar) xarid summasiga nisbatan realizatsiya ulushi 50 % dan kam bo'lgan subyektlar soni 162 ta bo'lib, 0,5 % ulush qiymatini o'zida mujassam qilgan. 2024-yil yakuniga qadar QQS to'lamagan subyektlar soni 2 taga teng, jamiga nisbatan foiz ulushi 4,05 % ni tashkil etadi. Yuqori soliq to'lovchi sanoat subyektlarining soliq qarzlari qisqartirish imkoniyati mavjud subyektlar soni 954 taga yetgan bo'lib, 2024-yil yakuniga kelib ulushi 2,5 % ni tashkil etadi.

Keyingi klassifikator, ya'ni imtiyoz qo'llanilgan subyektlar soni 561 ta, ulushdagi foiz 8,7 % ga teng. Bu turdagi sanoat subyektlari uchun ajratilgan mablag' qiymati 34 098 188 099 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu aniqlangan pul qiymatini foizga o'tkazganda 2,6 % hosil bo'ladi. So'nggi klassifikator — soliq qarzlari mavjud subyektlar soni 97 ta bo'lib, jamiga nisbatan 0,85 % ulushga ega. Qarzdorlik miqdori 5 789 510 008 so'mni tashkil etadi. Jami qarzdorlik mablag'iga nisbatan 0,47 % ulush budget tashkilotlari va NNTlar soha subyektlariga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchi qarzini o'zi tan olgan bo'lsa, ogohlantirish olganidan keyin ham qarzini bir oy ichida to'lama, uning mol-mulki hisobidan undirish ishlari davlat soliq xizmati organlarining qarori asosida Majburiy ijro byurosi tomonidan amalga oshiriladi. Bu chora samarali natija berishi kutiladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Toshkent shahridagi yirik soliq to'lovchilar o'rtasida soliq intizomi bosqichma-bosqich mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi va ochiqlik tamoyillarining kengaytirilishi budget tushumlarini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon yirik subyektlarning moliyaviy mas'uliyatini oshirib, ularning davlat moliyaviy siyosatidagi ishonchli o'rnini mustahkamlamoqda.

Sohani yanada rivojlantirish uchun soliq ma'murchiligini innovatsion asosda modernizatsiya qilish, korxonalar bilan interaktiv hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish va soliq intizomini oshirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Yirik soliq to'lovchilar faoliyatini raqamli tahlil tizimlari orqali boshqarish, soliq yukini optimal taqsimlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishidagi amaliy sa'y-harakatlar poytaxt budjeti daromadlarini yanada oshirishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
3. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish. –Toshkent, 2016. B.141.
4. Toshmatov Sh.. Korxonalar iqtisodiy faolligini oshirishda soliqlar rolini kuchaytirish muammolari.- Doktorlik ishi. Avtoreferat. T.: 2008
5. Tashpulatova D.Sh. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekistonda soliq qarzarini undirishni takomillashtirish istiqbollari. "Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruza tezislari to'plami.-T.: TMI, 2013. B.416.
6. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>